



## SHAXS RIVOJLANISHINING PSIXOLOGIK OMILLARI

**Alisherova Zulfiya Tolibdjanovna**

Andijon Davlat Pedagogika Instituti

Ijtimoiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6758252>

Annotatsiya: Maqolada shaxs shakllanishi jarayonida ijtimoiy intellekt rivojlanish dinamikasining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari o'rganilib, psixologik-pedagogik yordam beradigan, kasbiy shakllanishda yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etuvchi va tizimlashtirilgan tadbirlar xarakteridagi modul ishlab chiqilganligi tahlil etilib, davlat va jamiyat taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan, davr talabiga mos, raqobatbardosh, ijtimoiy faol va yuqori intellektual salohiyatli mutaxassis kadrlar tayyorlash zarurligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: intellekt, aqliy qobiliyatlar, ijtimoiy va emotsiyal intellekt, empatik qobiliyatlar, intellekt dinamikasi, ijtimoiy faollik.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2017 yil 7 fevraldaggi PF-4947-son farmoni bilan qabul qilingan «2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi»ning to'rtinchi yo'nalishida «...texnik ta'limni yuksaltirish va sohani yuksak malakali kadrlar bilan ta'minlashni kuchaytirish» vazifasi qo'yilgan. Shaxsning erkinligi va uning intellektual salohiyatli bo'lishi g'oyasi ushbu vazifaning bajarilishidagi asosiyalaridan biri hisoblanadi. Zotan, erkin shaxs, erkin xalq, yaratuvchanlik, farovonlik, insonparvarlik, bunyodkorlik ishlari, ilmu-fan, madaniyat va zamonaviy ishlab chiqarish jarayonida faol harakat qilishga hamda ko'zlangan maqsadlarga erishishga qodirdir.

### ADABIYOTLAR SHARHI

Hozirgi davrda jamiyat taraqqiyotida yuz berayotgan keskin o'zgarishlar sifat jihatidan yangi va nisbatan murakkab bo'lgan vazifalarni qo'yadi, bunda shaxs intellektining rivojlanish darajasi, uning aqliy imkoniyatlari regulyatori, axloqiy jihatlar alohida ahamiyat kasb etadi. Xo'sh, ushbu xususiyatlar talabalik davrida qay tarzda namoyon bo'ladi va tarkib topadi?

Yoshlik davrining asosiy hususiyatlaridan biri - ijtimoiy yetuklikning jadal sur'atlar bilan ro'yobga chiqishidir. Bunday yetuklik shaxsdan zarur aqliy qobiliyat, hayot va faoliyatda bajariladigan turli rollarni egallahni talab qiladi. Ayniqsa, aqliy yetuklik (kamolot) muhim ahamiyat kasb etadi.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL


Shaxs shakllanishi haqida gapirar ekanmiz, albatta u yashayotgan muhit, kishilar, jamiyatning roli juda kattadir. Mana masalan, biron mahallada inson shaxsining tarkib topishiga aktiv ta'sir ko'rsatuvchi bez yuzta o'ziga xos ijtimoiy



muhit bor degan ma'noni bildiradi. Bu yerda shunday bir savol tug'iladi. Tashqi muhit inson shaxsining tarkib topishiga qanday ta'sir qiladi?

Birinchidan, ijtimoiy muhitdagi turli hodisalar odamning ongiga bevosita ta'sir qilibg unda chuqur iz qoldiradi. Ikkinchidan, tashqi ijtimoiy muhit ta'sirining chuqurroq va mustahkamroq bo'lishiga odamning o'zi yordam beradi. Ma'lumki, bolalar o'z tabiatlariga ko'ra, ilk yoshlik chog'laridan boshlab nihoyat darajada taqlidchan bo'ladilar. Bolalar katta odamlarning barcha xatti-harakatlari bevosita taqlid qilish orqali bu xatti-harakatlarni, yaxshi-yomon fazilatlarni o'zlariga singdirib boradilar. Shuning uchun bolalar oilada, ko'cha - kuyda katta odamlarning har bir harakatlarini, o'zaro munosabatlarini zimdan kuzatib turadilar. Inson shaxsining tarkib topishida tashqi ijtimoiy muxitning roli haqida gap borara ekan, shuni ham ta'kidlab o'tish zarurki, ayrim g'ayri tabiiy hodisalar inson shaxsining tarkib topishida tashqi muhit ta'sirining hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini to'la tasdiqlaydi. Biz ayrim tasodifiy hollarda odam bolalarining yovvoyi hayvonlar muhitiga tushib qolish hodisasini nazarda tutayapmiz. Hayotda bunday hodisalar juda siyrak bo'lsa ham har holda uchrab turadi. Massalan, Hindistonli doktor Sing Kalkutta yaqinidagi o'rmonzorda bo'ri bolalari bilan birga ikkita odam bolasining ham to'rt oyoqlab yugurib yurganini ko'rib qoladi. Keyin ularni poylab, qarorgohlarini topib bolalarni olib ketadi. Ulardan biriga Amala, ikkinchisiga Kamala deb nom quyadi. Shu narsa xarakterliki, bolalar yoshlikdan bo'ri muhitiga tushib qolganliklari tufayli, fe'l-atvorlari, xatti-harakatlari jihatidan bo'rilardan farq qilmas edilar. Nutq yo'q, demak tafakkur ham nihoyat darajada cheklangan edi. Juda katta qiyinchiliklar bilan qayta tarbiyalanilayotgan bo'ri muhitidagi bolalar shamollash natijasida o'lib qoladilar. Bu hodisa odamning shaxs sifatida rivojlanishi uchun eng avval insoniy muhit, ya'ni ijtimoiy muhit bo'lishi kerakligini to'la tasdiqlaydi.

Umumiyl intellektning tarkibidan farqli ravishda, ijtimoiy intellektning tarkibida o'z-o'zini anglashning shaxsga oid xususiyatlari va xarakteristikalarini katta rol o'ynaydi. Bunda o'z-o'zini anglash «mashaqqatli», komplekslar va psixologik himoya to'siqlari bilan to'lib-toshgan bo'lmasligi kerak. Shuning uchun ham avtoritar shaxsda ijtimoiy intellektning yuqori ko'rsatkichlari juda kam uchraydi. Bunday shaxs odamlar bilan muomalaga kirishganda ko'zga tez tashlanmaydigan qiyinchiliklarni boshdan kechiradi, odamlarni yomon tushunadi (ayniqsa, boshqa jinsdagilarni), ular bilan chiqishib keta olmaydi, ba'zida esa u odamlardan umuman qo'rqedi. Bunday insonning o'z-o'zini anglashi rivojlanmaganligi sababli komplekslarga to'la bo'ladi. Shaxsiy





qiziqishlari kam bo'ladi yoki bo'lmaydi, o'zini anglamagan holda agressivlikka beriluvchan bo'ladi.

Ijtimoiy intellekt «inson-inson» tipi sohasidagi kasblarda muhim ahamiyatga ega bo'lib, pedagoglar, psixologlar, psixoterapevtlar, jurnalistlar, menejerlar, huquqshu-noslar, shifokorlar, siyosatchilar, tadbirkorlar faoliyatini prognoz qila olish imko-niyatini beradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda quyidagicha xulosaga kelish mumkin: yoshlarning ijtimoiy intellekti tabiatini tadqiq etish, ilmiy jihatdan chuqr tahlil qilish bugungi kun talabi bo'lib, barkamol avlod tarbiyasi, uning intellektual salohiyatini oshirish va kasbiy shakllanishida ijtimoiy intellektni aniqlash usullarini chuqr o'rghanish va dinamikasining xususiyatlarini tahlil etish muhimdir. Yoshlarning shaxslar- aro munosabatlarida intellektual qobiliyatları birligida ijtimoiy muhit, suhbat- doshlarning xatti-harakatlari, shaxsiy fazilatlari, kechinmalarini baholash imkoniyat- lari qonuniyat jihatidan mustahkam bog'liqdir. Muloqot ishtirokchisining hissiyoti, fikr va niyatlarini tushunish qobiliyatiga egalik ijtimoiy intellektning o'sishiga ham, murakkab mantiqiy munosabatlarni tushunishga ham ijobiy ta'sir ko'rsatib, tushunchalarning muhim va nomuhim jihatlarini farqlay olishni axborotlarni ko'rish orqali qayta ishslash imkoniyatlarining o'sishiga olib kelib, yoshlarning kasbiy va shaxsiy kamolotida o'z-o'zini namoyon etishida ko'rindi .

Shaxs va uning psixologiyasiga ta'sir etuvchi ikkinchi omil -ta'lim - tarbiyaning ta'siridir. Ma'lumki, ta'lim-tarbiya inson ongini shakllantiradi, uni dunyoqarashi, e'tiqodi, hayotta bo'lgan munosabatini tarkib toptiradi. Agar bolalarning ruhiy taraqqiyotlari va shaxsiy xususiyatlarining tarkib topishi faqat tashqi ijtimoiy muhit bilan ta'lim tarbiyaning o'zigagina bog'liq bulganda edi, unday paytda biz bir xilda sun'iy va aynan bir xil ta'lim tarbiya sistemasini tashkil qilib, har tomonidan bab -baravar tarakqiy etgan va deyarli bir xil shaxsiy xususiyatlarga ega kishilarni yetishtirib chiqarar edik. Baholanki, bunday bo'lishi mumkin emas. Shuni aytib o'tish kerakki, bola shaxsining tarkib topishiga ta'lim-tarbiyaning ta'siri deganda albatta birinchi navbatda tarbiya muassasalarida, ya'ni bogcha, maktab, internat, litsey va kollejlarda beriladigan ta'lim tarbiya tushuniladi. Biroq bundan oilada bolaga beriladigan ta'lim-tarbiya mutlaqo mustasno emas! Oiladagi umumiyligi ijtimmoiy muhitdan tashqari oilada beriladigan ta'lim-tarbiyaning roli kattadir. Bola tarbiyasi bilan sistemani shugullanadigan va umuman shugullanmaydigan oilalarga misollar keltirish mumkin.



Yuqorida aytib o'tilgan ikkita omildan tashqari uchinchi omil ham mavjud - bu nasliy xususiyatlardir. Odamga nimalar nasliy beriladi? Odamga nasliy yo'l bilan ayrim anotomik va biologik xususiyatlari beriladi. Masalan, tana tuzilishi, sochi va ko'zlarini rangi, ovozi, gapirish uslublari, ayrim harkatlari tugma berilishi mumkin. Lekin shunr! hech qachon esdan chiqarmaslik kerakki, odamga hech vaqt uning psixik xususiyatlari, ya'ni uning aqliy tomonlari bilan bogliq bo'lgan sifatlari nasliy yo'l bilan, ya'ni tugma ravishda berilmaydi. Nihoyatda nodir hollarda ayrim qobiliyatlar, masalan, musiqa, matematik qobiliyatlariga nasliy yo'l bilan berilishi mumkin.

### XULOSA VA MUNOZARA

Odamning ruxiy iaraqqiyoti va shaxsiy xususiyatlarining tarkib topishi haqida gapirar ekanmiz, yana bir muhim narsa ustida to'xtab o'tish kerak. Hozirgi kunda tez-tez akseleratsiya terminini ishlatayapmiz. Xo'sh akseleratsiya bu nima? Akseleratsiya so'z bo'lib, tezlatish degan ma'noni anglatadi . Hozirgi kunda bolalarni ham jismoniy, ham jismoniy, ham ruhiy jihatdan juda jadallik bilan rivojlanayotganliklarining guvohi bo'lib turibmiz. Xo'sht buning sababi nima? - Albatta bunga turli fikrlar bor. Ayrim olimlar akseleratsiyaning sababini ilmiy-texnika bilan bog'lab tushuntirishga intilmoqdalar. Ularning fikricha, ilmiy-texnikaning juda jadal temp bilan rivojlanishi insoniyatning oldiga mislsiz ko'p informatsiyalarni idrok qilish va fikrda qayta ishlash talablarini qo'ydi. Bu talab o'z navbatida insonni har tomonlama, ya'ni ham jismoniy, ham psixik jihatdan tez rivojlanishiga olib keldi. Yuqorida aytib o'tilgan olimlarning fikricha, akseleratsiya - bu XX asrning ikkinchi yarmiga xos bo'lgan hodisadir.

### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar Strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-sон farmoni. // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjalari to'plami. 2017 yil, 6-son, 70-modda.
2. Ayzenk G.Yu. Proverte intellektualnye sposobnosti. / Per. s angl. 2-ye izd. - Riga, 2012. -S. 176.
3. G'oziev E.G'. Talabalarni umumlashtirish usullariga o'rgatish va ularning aqliy taraqqiyoti. - T.: «O'qituvchi», 2013.
4. Davletshin M.G., Kovalev A.G., Kruteskiy V.A. Qobiliyat va uning diagnostikasi. - T.: «O'qituvchi», 2010.
5. Gilford Dj. Tri intellekta. // Psixologiya myishleniya. Pod red A.M. Matyushkina. - M., 2015. -S. 433-456.
6. G'oziev E., Usmanova Sh. Intellekt psixologiyasi. - T.: «Fan», 1996. -81-98-  
b.